

TA'LIM TIZIMIDA PEDAGOG VA OTA-ONALAR BILAN HAMKORLIKNI YO'LGA QO'YISHNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Safarova Ruxsora Shukrullayevna

Buxoro viloyati Peshku tumani 28-maktab psixologi

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada ta'lim tizimida pedagoglar va ota-onalar o'rtasidagi hamkorlikning psixologik xususiyatlari, uning o'quvchi shaxsining rivojlanishidagi ahamiyati hamda samarali hamkorlikni tashkil etish yo'llari yoritilgan. Shuningdek, oila va maktab hamkorligini mustahkamlashga xizmat qiluvchi psixologik omillar tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: pedagog, ota-ona, hamkorlik, ta'lim tizimi, psixologik muhit, muloqot, tarbiya, o'quvchi, ijtimoiylashuv, psixologik xizmat.

KIRISH

Ta'lim tizimida o'quvchilarni har tomonlama barkamol shaxs sifatida tarbiyalashda pedagog va ota-onalar hamkorligi muhim ahamiyat kasb etadi. Bola tarbiyasida oila va maktab bir-birini to'ldiruvchi ikki asosiy ijtimoiy institut hisoblanadi. Ushbu hamkorlikning samaradorligi o'quvchining ta'limdagi muvaffaqiyati, xulq-atvori va ruhiy rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Pedagog va ota-onalar o'rtasidagi hamkorlikning psixologik asosini o'zaro ishonch, hurmat va samarali muloqot tashkil etadi. Agar ikki tomon bir maqsad yo'lida hamjihatlik bilan harakat qilsa, o'quvchida o'ziga bo'lgan ishonch, mas'uliyat hissi va ijobiy motivatsiya shakllanadi. Aks holda, qarama-qarshi talablar va tushunmovchiliklar bolada ichki ziddiyatlarni yuzaga keltirishi mumkin.

Lev Vygotskyning ijtimoiy rivojlanish nazariyasiga ko'ra, bolaning intellektual va shaxsiy rivojlanishi kattalar bilan o'zaro muloqot va hamkorlik jarayonida amalga oshadi. Shu sababli ota-onalar va pedagoglarning yagona tarbiyaviy yondashuvga ega bo'lishlari muhimdir. Ta'lim jarayonida uchraydigan muammolardan biri ota-onalarning maktab hayotida yetarli darajada ishtirok etmasligidir. Bu holat o'quvchining rivojlanishidagi ayrim muammolarni o'z vaqtida aniqlash va bartaraf etishga to'sqinlik qilishi mumkin.

Shu bois ota-onalarni ta'lim jarayoniga faol jalb etish zarur. Samarali hamkorlikni yo'lga qo'yishda muntazam muloqot muhim vosita hisoblanadi. Ota-onalar yig'ilishlari, individual suhbatlar, seminar-treninglar va maslahatlar orqali pedagoglar hamda ota-onalar o'rtasidagi axborot almashinuvi kuchayadi.

Albert Banduraning ijtimoiy o'rganish nazariyasiga ko'ra, bolalar kattalarning xulq-atvorini kuzatish va ularga taqlid qilish orqali o'rganadilar. Shu sababli pedagog va ota-onalarning hamkorlikdagi ijobiy munosabati bolaga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Maktab psixologi ham ushbu jarayonda muhim o'rin egallaydi. U pedagoglar va ota-onalar o'rtasida psixologik ko'prik vazifasini bajarib, o'quvchilarning individual xususiyatlari haqida tavsiyalar beradi, tarbiyaviy muammolarni hal etishda amaliy yordam ko'rsatadi. Hamkorlik jarayonida pedagog va ota-onalar bolaning qiziqishlari, qobiliyatlari va ehtiyojlarini inobatga olishlari lozim. Bu esa o'quvchining shaxsiy rivojlanishiga qulay sharoit yaratadi va uning ta'limga bo'lgan motivatsiyasini oshiradi. Bolani tarbiyalash va ta'lim jarayonida yuqori natijalarga erishish ko'p jihatdan ota-onalar bilan samarali hamkorlikni yo'lga qo'yishga bog'liq. Har bir o'quvchining oilaviy muhiti, individual xususiyatlari va ehtiyojlarini hisobga olgan holda ishlash ta'lim-tarbiya samaradorligini oshiradi. Ayniqsa, bolalar maktabga ilk qadam qo'ygan davrda o'qituvchining ularga nisbatan mehribon, samimiy va e'tiborli munosabati muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki birinchi taassurot o'quvchi ongida uzoq vaqt saqlanib qoladi va uning o'qituvchiga bo'lgan munosabatini shakllantiradi.

Shu sababli pedagog nafaqat o'zining kasbiy bilim va malakasi, balki madaniyati, muomala odobi hamda tashqi ko'rinishiga ham alohida e'tibor qaratishi zarur. O'qituvchi o'quvchilar uchun namuna bo'lib xizmat qilishi, kiyinish madaniyatiga rioya qilishi va o'zini tutishida pedagogik me'yorlarni saqlashi lozim. O'quvchilar bilan samimiy munosabat o'rnatish muhim bo'lsa-da, pedagogik masofa va hurmat muhitini saqlash ham zarurdir. Aks holda, o'qituvchining nufuzi va ta'sir kuchi pasayishi mumkin.

Birinchi sinf o'quvchilari maktabga kelgunga qadar asosan o'yin faoliyati bilan shug'ullanganliklari sababli ularda o'yinlarga qiziqish yuqori bo'ladi. Shu bois ayrim hollarda ular dars mashg'ulotlaridan ko'ra o'yin yoki multfilm qahramonlariga ko'proq

e'tibor qaratishlari mumkin. Bunday vaziyatlarda o'qituvchi har bir bolaga individual yondashib, zamonaviy pedagogik texnologiyalar, multimedia vositalari, tarqatma materiallar va ko'rgazmali qurollardan unumli foydalanishi maqsadga muvofiqdir. Yangilikka boy va qiziqarli materiallar o'quvchilarning bilim olishga bo'lgan qiziqishini yanada oshiradi.

Mashhur rus adibi va mutafakkiri Lev Tolstoy ta'kidlaganidek, bolalarni muvaffaqiyatli tarbiyalash uchun pedagog avvalo o'z ustida muntazam ishlashi va o'zini rivojlantirib borishi kerak. "Pedagog" atamasi qadimgi yunon tilidan olingan bo'lib, "bola yetaklovchi" ma'nosini anglatadi. Demak, o'qituvchi nafaqat bilim beruvchi, balki tarbiyachi va yo'l boshchi sifatida ham faoliyat yuritadi.

Boshlang'ich sinf o'qituvchisining muhim vazifalaridan biri ota-onalar bilan mustahkam hamkorlikni yo'lga qo'yishdir. Ota-onalar bilan individual ishlash, ularning fikr va takliflarini inobatga olish o'quvchining rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bunday hamkorlikning asosiy shakllaridan biri ota-onalar yig'ilishlarini tashkil etish hisoblanadi. Yig'ilishlarni samarali o'tkazish uchun ota-onalarni oldindan xabardor qilish, ularni samimiy tarzda taklif etish hamda qulay muhit yaratish muhimdir. Sinf xonasining ozodaligi, yorug'ligi va estetik bezatilishi ota-onalarda ijobiy taassurot uyg'otadi. Shuningdek, o'quvchilarning ijodiy ishlari va qo'l mehnati namunalari namoyish etilishi ota-onalarning farzandlari yutuqlariga bo'lgan qiziqishini oshiradi.

Yig'ilish davomida ota-onalarni samimiy kutib olish, do'stona muhit yaratish va suhbatni mazmunli tashkil etish tavsiya etiladi. Uchrashuvlar haddan tashqari cho'zilmasligi, muhokama qilinadigan masalalar oldindan rejalashtirilishi lozim. O'quvchilarning kamchiliklarini muhokama qilishda tanqidiy yondashuvdan ko'ra, ularni rivojlantirish yo'llarini ko'rsatish samaraliroq hisoblanadi. Yig'ilish yakunida ota-onalarda farzandining ta'lim-tarbiyasida faol ishtirok etish zarurligi haqidagi ijobiy motivatsiya shakllanishi maqsadga muvofiqdir. Shu tariqa maktab va oila hamkorligi o'quvchi shaxsining har tomonlama kamol topishiga xizmat qiladi.

"Oila va maktab - bu qirg'oq va dengiz. Sohilda bola birinchi qadamlarini tashlaydi, hayotning birinchi saboqlarini oladi, keyin uning oldida cheksiz bilim dengizi ochiladi va

maktab bu dengizda yo‘l ochadi. Bu uning qirg‘oqdan butunlay uzilishi kerak degani emas". Darhaqiqat, rus yozuvchisi Lev Kassil bu so'zlarni bekordan bekor aytmagan. Oila qirg'oqning, dengiz esa maktabning xuddi o'zginasi. Bola ko'z ochib onasini, otasini, yaqinlarini va uyini ko'radi. Shu yerda unib-o'sadi, ulg'ayadi, ilk xotiralari tug'iladi, cheksiz mehr ummonini oilasidan his qiladi. Keyin esa cheksiz bilim dengizi tomon yo'l oladi, bu yo'lni esa maktab ochadi. Maktab- ilm o'chog'i. Bola qalam ushlashni, yozishni, chizishni, o'qishni ilk o'qituvchisi bo'lmish sinf rahbaridan o'rganadi. Lekin bu degani "Endi barcha narsani maktab o'rgatadi" degani emas. Maktab faqatgina ta'lim beradi, xolos. Tarbiyani esa oilasidan, mahallasidan, o'z atrofidagi muhitdan oladi. Ta'lim va tarbiyani qisqagina qilib ta'riflash mumkin. "Ta'lim- bu osh pishirish jarayonini ma'ruza yo'li bilan tushuntirish bo'lsa, tarbiya- shu jarayonni amalda ko'rsatib berishdir". Shunday ekan, ta'lim va tarbiya bir-biri bilan chambarchas bog'liq.

Ota-onalar bilan ishlash sinf rahbari ish tizimining ajralmas qismidir. Bu ish tizimli va ilmiy asoslangan holda sinf rahbarining umumiy pedagogik faoliyatiga organik ravishda kiritilgan bo'lsa, muvaffaqiyat keltiradi. Maktabning tarbiyaviy ishini bolaning individualligi oilada shakllanishini hisobga olmasdan qurish mumkin emas. Sinf rahbari o'quv jarayonining markaziy shaxsidir. Ota-onalar maktabni sinf rahbarining mahoratiga qarab baholaydilar, birinchi navbatda uning professionalligidan qoniqish yoki norozilik bildiradilar. Ota-onalar eng muhim narsani his qilishadi - bolani kim va qanday qilib hayotga kiritadi. Sinf rahbarining ota-onalar bilan o'zaro munosabati uning maktabdagi faoliyatining ajralmas qismidir. Birinchi kunlardan oq bolalarning ota-onalari bilan do'stona, sheriklik munosabatlarini o'rnatish muhimdir. Zero, bola tarbiyasining poydevori oilada qo'yiladi va u maktabga u yoki bu tarzda tarbiyalangan holda keladi.

Sinf rahbarining o'quvchilarning oilalari bilan munosabati oilani, uning tarbiyaviy imkoniyatlarini, oilaviy tarbiya muhitini o'rganish orqali amalga oshirilishi kerak. Umumiy o'zaro axloqiy pozitsiyalar asosida talabalar uchun yagona pedagogik talablar ishlab chiqilib, ular birgalikdagi faoliyatning turli shakllarida amalga oshiriladi. Bu holatda muvaffaqiyat ko'rsatkichi sinf o'qituvchisining o'z o'quvchilarining ota-onalarini pedagogik niyatlar ittifoqchisi qilish qobiliyati bo'ladi.

Sinf rahbarining ota-onalar bilan olib boradigan ishlarida asosiy narsa o'quvchilarni oila va maktabdan tarbiyalashga qo'yiladigan talablarning birligini ta'minlash, ularning uyda o'qitishi uchun normal sharoitlarni yaratish va oilaning tarbiyaviy faoliyatini yo'naltirishdir. Maktabning oila bilan ishlash mazmuni va asosiy shakllari ushbu mavzu bo'yicha maxsus bobda ochib berilgan. Shuning uchun bu erda biz sinf o'qituvchilarining o'quvchilarning ota-onalari bilan aloqalarini saqlashdagi faoliyatining ba'zi masalalarini ta'kidlash bilan cheklanamiz.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, pedagog va ota-onalar o'rtasidagi samarali hamkorlik o'quvchilarning intellektual, ma'naviy va ijtimoiy rivojlanishini ta'minlaydigan muhim omildir. O'zaro hurmat, ishonch va muntazam muloqot asosida tashkil etilgan hamkorlik ta'lim-tarbiya samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. «O'quvchilarni tarbiyalashda oila, mahalla, maktab hamkorligi» konsepsiyasining. O'quvchi ma'naviyatini shakllantirish. – T.: «Sharq» nashriyot matbaa Bosh tahririyati. 2000 y
2. Mavlonova R.A., To'raeva O.T., Xoliqberliev K.M. "Pedagogika" - T.; O'qituvchi 1998 y.
3. Mavlanova R., Normuradova B., Raxmanqulova R. Tarbiyaviy ishlar metodikasi. –T.: Fan, 2007.
4. Z.K.Kurbaniyazova, Boshlang'ich sinflarda ota-onalar bilan ishlash metodikasi Toshkent "Tafakkur avlodi" 2020y
5. ZIYO.NET